

YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASH

*Uralova Shaydo Baxtiyor qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti
1-kurs talabasi
Telefon: +998(91)7837702
uralovashaydo0@gmail.com*

Annotatsiya: ushbu ilmiy maqolada bugungi kunda dolzarb muammo hisoblangan yashirin iqtisodiyot o'zi nimaligi, kelib chiqish sabablari, jamiyatga ta'siri va bartaraf etish yo'llari bilan yoritilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot, yashirin, xufiya, globallashuv, g'ayriiqtisodiy, o'g'rilik, narkobiznes.

Yashirin iqtisodiyot, xufiya iqtisodiyot - ishtirokchilar tomonidan oshkora olib borilmaydigan, davlat va jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan, soliqlar to'lanmaydigan, rasmiy davlat statistikasida qayd etilmaydigan iqtisodiy jarayonlar, iqtisodiy faoliyat turlari. Yashirin iqtisodiyot oshkora payqab bo'lmaydigan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayrboshlash, iste'mol jarayonlari iqtisodiy munosabatlar bo'lib, uning negizida ayrim kishilar yoki kishilar guruhi manfaatlari yotadi. Yashirin iqtisodiyot dunyoning deyarli hamma mamlakatlarida mavjud.

Yashirin iqtisodiyot murakkab ko'p bosqichli hodisa, uning tur va shakllari xilma xil. Yashirin iqtisodiyot maqsadi, faoliyati va iqtisodiy ijtimoiy oqibatlariga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi: 1) jinoiy iqtisodiy faoliyat. Bu mutlaqo ma'n etilgan, qonun yo'li bilan ta'qib etiladigan ishlar bilan shug'ullanish, mas, narkobiznes, pornobiznes, qurol biznesi va h.k.; 2) g'ayriqonuniy, g'ayriiqtisodiy usullar bilan daromadlarni qayta taqsimlab o'zlashtirib olish, mas, o'g'rilik, bosqinchilik, reket, poraxo'rlik; 3) ikkilamchi iqtisodiyot - kishilarga zarar keltirmaydigan, ular uchun naf beradigan, lekin rasman ruxsat etilmagan va davlat ro'yxatidan o'tmagan iqtisodiy faoliyat.

Ularga yashirin tadbirdorlik, 1-2 va 5-10 kishi band bo'lgan yashirin kichik korxonalar faoliyati kiradi. Yashirin tadbirdorlik xizmati ko'rsatish, qishloq xo'jaligi, qurilish, savdo, kiyim kechak ishlab chiqarishda keng tarqagan; 4) rasman ruxsat etilgan faoliyat bilan birga qo'shimcha ravishda yashirin ishlab chiqarishga qo'l urish, ochiq ishlaydigan korxonalarda qo'shimcha ravishda hisobga kirmagan mahsulot chiqarib, uni yashirin sotish; 5) mansabni suiiste'mol qilish va korrupsiyaga asoslangan iqtisodiy xatti-harakatlar. Bular jumlasiga davlat idoralaridagi poraxo'rlik, yashirin lobbizm, mansabdan foydalanib subsidiyalar olishni kiritish mumkin; 6) qalbakilashtirilgan iqtisodiy faoliyat, bu iqtisodiyot davlat sektoriga xos bo'lib, davlatni aldashga qaratiladi. Buning eng yaqqol namunasi davlat sektoridagi qo'shib yozishlar,

qilinmagan ishlar uchun davlatdan haq olish va boshqalar Yashirin iqtisodiyot dagi ijtimoiy zararli faoliyat davlat tomonidan qat'iyan taqiqlanadi, hamma choralar bilan unga qarshi kurash olib boriladi, ijtimoiy foydali faoliyatning (norasmiy bo'sada kishilar talabehtiyojlarini qondiradi) oshkoraliqka chiqishi iqtisodiy jihatdan rag'batlantiriladi.

Yashirin iqtisodiyot miqyosi yashirin iqtisodiy aylanma, ya'ni ruxsat etilmagan tovar va xizmatlarni yaratish va ularni sotish hajmi bilan belgilanadi. Aylanma xufiyona bo'lganidan uning aniq hisobkitobi bo'lmaydi. Buning o'rniga uni taxminan baholash usuli qo'llaniladi. Ayrim hisobkitoblarga ko'ra, o'tgan asr oxirlarida Yer yuzidagi yashirin iqtisodiy aylanma 8 trln. dollarga yoki jahon yalpi mahsulotining 27,5% ga teng bo'lgan. Biroq Ya.i. miqyosi turli mamlakatlarda farqlanadi. Yashirin iqtisodiyot eng rivojlangan mamlakatlarga Lotin Amerikasi va Afrika mamlakatlari kiradi. Mas, 1999- yil Misr va Nigeriyada u yalpi ichki mahsulotning 70% ga teng bo'ldi. Yashirin iqtisodiyot hissasi eng kam bo'lgan mamlakat Osiyoda Yaponiya (1-2%), G'arbiy Yevropada Shveysariya hisoblanadi. MDH mamlakatlarida Yashirin iqtisodiyot darajasi o'rtacha. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida, mas, AQSH va Italiyada Yashirin iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi hissasi tegishlicha 6,4 va 11,4% ni tashkil etdi (1997). 21-asrga kelib iqtisodiyotining globallashuvi oqibatida yashirin iqtisodiyot milliy doiradan chiqib xalqaro darajaga ko'tarildi.

Yashirin iqtisodiyot globallashuvi bu bir mamlakatdagi Yashirin iqtisodiyot boshqa mamlakatga ko'chirilishida, nojoya biznes ishlari bilan shug'ullanuvchi xalqaro firmalarning paydo bo'lishida ko'rindi. o'rindi. Bunga misol qilib xalqaro narkobiznesni, yashirin qurol savdosini, ishchi kuchining yashirin migratsiyasini uyushtirishni, offshor zonalar orqali g'ayri qonuniy yo'llar bilan topilgan pulni "halollab" olish kabilarni ko'rsatish mumkin. Bular xalqaro hamjamiyatga katta xatar tugdiradi. Pulni chet mamlakatga yashirin chiqarib "halollab" olishga qarshi kurash maqsadlarida xalqaro hamjamiyat maxsus tashkilot - Xalqaro moliyaviy harakatlar guruhini tashkil etgan (36 mamlakat a'zo; 2000).

Yashirin iqtisodiyotning rivojlanishiga quyidagilar sabab bo'ladi: soliqlarning oshirilishi, turli xil litsenziya, sertifikat va ruxsatnomalar olinishida ko'zda tutilmagan xarajatlarning mavjudligi; xomashyo mahsulotlari yetkazib berilishida tegishli hujjatlarni rasmiylashtirishdagi qiyinchiliklar. Yashirin iqtisodiyotda valuta qora bozorining o'rni juda katta hisoblanadi. Bizning mamlakatda ham eng yirik naqd pul aylanmalari xorijiy valuta bo'l mish AQSh dollarida amalga oshiriladi (noqonuniy yirik bitimlar, uy-joy, avtomobil oldi-sotdisi va boshqa ko'plab tovarlar oldi-sotdisi yig'indisi). Bankdan tashqari aylanayotgan ushbu xorijiy valutaning milliy valutamiz so'mga nisbatan yetkazayotgan bevosita zarari oxir-oqibat so'mmizning qadrsizlanishiga o'zining bilvosita ta'sirini ko'rsatmoqda. Aksariyat mahsulotlarning chetdan naqd pulga sotib olib keltirilishi yoki xufyona bitimlar tufayli mahsulotlarning

mamlakatimizga olib kirib sotilishi ko'p jihatdan soliqdan yashirgan holda foyda ko'rib ishlayotgan tadbirkorlar va ularni qo'llab-quvvatlab turgan boshqa shaxslarga qo'l kelmoqda. Asosiysi, o'z tadbirkorligi yoki ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning realizatsiya qilinishiga, raqobatbardosh mahsulotlarning ishlab chiqilishiga misli ko'rilmagan darajada ziyon yetadi. Oddiy tushuntiradigan bo'lsak, masalan tekstil fabrikasida tayyor holda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxi xufyona ishlab chiqarilgan mahsulotnikidan yuqori bo'lishi tabiiy, sababi, fabrika xodimlarga ish haqi, ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar amortizatsiyasi va shunga o'xshash xarajatlarni qoplashi zarur. Bular esa mahsulot tannarxida o'z aksini topadi. Yashirin sexda ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxida bu xarajatlar yo'qligi sababli, bozorda fabrika mahsulotining sotilishida qiyinchiliklar olib keladi.

Yashirin iqtisodiyotning jamiyatga ta'siri:

Iqtisodiyot fanida iqtisodiyotning zamонавији тараққијоти xусусиятлари institutsional iqtisodiyot nuqtai nazaridan jamiyatda amal qiluvchi formal va noformal institutlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri sifatida tadqiq qilinmoqda. Shartli ravishda iqtisodiy-huquqiy tadqiqotlarni uch yo'naliшhga bo'lib tadqiq etish mumkin: 1) huquqning iqtisodiy nazariyasi (konsepsiyalari) - legal biznes faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy normalarning iqtisodiy samaradorligini (R. Kouz, R. Pozner va boshq.), hamda huquqiy normalarning xo'jalik amaliyotiga ta'sirini (R.La Porta) o'rganish; 2) xufyona (yashirin) iqtisodiyotni o'rganish rasmiy hisob-kitob va nazoratdan yashirinadigan va ko'pchilik hollarda noqonuniy xarakterga ega xo'jalik faoliyati (E. De Soto); 3) jinoyat va javobgarlikning iqtisodiy nazariyasi kasbiy faoliyatning alohida turi sifatida jinoyatchilarning faoliyatini, hamda jinoyatchilikni kamaytirishning turli uslublarini samaradorligini o'rganish (G.Bekker va boshq.) Ushbu uch yo'naliшh ko'pchilik hollarda ustma-ust tushadi, lekin predmet va metodlardagi farq sezilib turadi. Huquqning iqtisodiy nazariyasi rasmiy ("oq") iqtisodiyotni o'rganishadi; xufyona iqtisodiyot bo'yicha mutaxassislar asosan norasmiy ("kul rang") sektorga e'tibor qaratishadi; jinoyatchilikning iqtisodiy nazariyasi kriminal ("qora") biznesni o'rganishadi. Huquqning iqtisodiy nazariyasi va jinoyatchilikning iqtisodiy nazariyasi neoinstitutsionalizmning oqimlari hisoblanadi. Xufyona iqtisodiyotni tadqiq etish bilan ko'pincha an'anaviy institutsionalizm namoyandalari bo'lgan iqtisodchi va sotsiologlar shug'ullanishadi. Hozirgi vaqtda iqtisodiyot va jamiyatning globallashuvi, integratsiya jarayonlarining chuqurlashib borishi mamlakatlar o'rtasidagi rasmiy chegaralarning yemirilib borishiga olib kelmoqda. Rivojlangan dunyo birlashib chegaralarni yo'q qilib ittifoqlar tashkil etmoqda. Bunday sharoitda dunyoning har qanday burchagida yuzaga kelgan ilg'or (ham yaxshi, ham yomon ma'noda) usullar jadal ravishda butun dunyoga tarqab ketmoqda. Shu sababdan iqtisodiyotning norasmiy iqtisodiyotni namoyon bo'lish shakllarini, ularni aniqlash va baholash usullarini, shu bilan birga unga qarshi kurashi (zarur bo'lgan hollarda) yoki

legallashtirish yo'nalishlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida "Islohotlarimizga jiddiy to'sqinlik qilayotgan "yashirin iqtisodiyot ga barham berilmas ekan, sog'lom raqobat ham, qulay investitsiya muhiti ham shakllanmaydi. Vazirlar Mahkamasi ikki oy muddatda, xorijiy mutaxassislarni jalb etgan holda, "yashirin iqtisodiyotning vujudga kelish omillarini chuqur tahlil qilib, unga qarshi kurashish dasturini tasdiqlasın", -deb ta'kidlagan. Xufyona iqtisodiyotning namoyon bo'lish shakllaridan biri bo'lgan korrupsiya jamiyat taraqqiyotiga nihoyatda salbiy ta'sir etadi. Shu boisdan korrupsiyaga qarshi kurash va uning oldini olish masalalari barcha mamlakatlar uchun dolzarb hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "To'rtinchidan, afsuski, jamiyatimizda korrupsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi. Tadbirkorlar hanuzgacha yer ajratish, kadastr, qurilish, litsenziya, bojxona, bank, davlat xaridlari kabi sohalarda korrupsiyaga duch kelayotganini Prezident nomiga kelib tushayotgan ko'plab murojaatlar ham, matbuot va ijtimoiy tarmoqlardagi chiqishlar ham yaqqol ko'rsatib turibdi. Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, "halollik vaksinasi" bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz.

Biz korruksianing oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o'tishimiz kerak"2.-deb jamiyat oldiga muhim vazifani belgilab berdi. Mamlakatimiz aholisini "halollik vaksinasi" bilan emlash uchun xufyona iqtisodiyot, korrupsiya masalalari bo'yicha zaruriy tushunchalarni barcha ta'lim tizimlarida o'quvchi va talabalarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib o'qitish, ularning ongiga singdirib borish maqsadga muvofiqdir. Keyingi yillarda Oliy ta'lim muassasalarida xufyona iqtisodiyot fanini o'qitish boshlanda. Bu fanni asosiy o'qitiladigan fanlar jumlasiga kiritib, darslik va o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqish va nashr qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur o'quv qo'llanma bu boradagi dastlabki ishlardan biri bo'lib, unda talabalarda xufyona iqtisodiy faoliyatning vujudga kelish sabablari, mohiyati va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari hamda unga qarshi kurash chora-tadbirlari hamda unga qarshi kurash chora-tadbirlari to'g'risidagi asosiy tushuncha va ko'nikmalarni shakllantirish maqsadi qo'yilgan. Mualliflar o'quv qo'llanmani kelgusida yanada takomillashtirish bo'yicha kitobxonlarning, mutaxassis va professor-o'qituvchilarning fikr-mulohazalarni mamnuniyat bilan qabul qiladilar.

Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishning huquqiy asoslari:

Mamlakatimizda keyingi ikki yil davomida yashirin iqtisodiyotning ta'sirini kamaytirish bo'yicha bir qancha ishlar olib borildi, masalan 2017 yilda "Korruksiyaga

qarshi kurashish to'g'risida"gi, 2018 yilda esa "Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi samarali kurashish maqsadida joriy yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida Korrupsiyaga qarshi kurash va sud huquq masalalari qo'mitasi tashkil etildi. Uning asosiy vazifalaridan biri barcha qonun va qonunosti hujjatlarida korrupsiya alomatlari mavjud bo'lgan normalarni aniqlash va bartaraf etishdir. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini beshta ustuvor yo'nalish bo'yicha Strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yilida amalga oshirishga oid Davlat dasturida xam "yashirin iqtisodiyotning omillarini sohalar va tarmoqlar kesimida tahlil qilib, uni kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash ko'zda tutilgan. Unda: iqtisodiy faoliyatni legallashtirish yuzasidan qo'shimcha choralarini aniqlash; soliq yukini kamaytirish va soliq ma'murchilagini takomillashtirish; import qilingan tovarlarning hisobotlarini elektron tarzda shakllanishini ta'minlash; naqd pulsiz hisob-kitobni rag'batlantirish mexanizmini ishlab chiqish; ayrim tovarlar uchun identifikatsiya markirovka qilishning yagona tizimini joriy etish va soliq organlari tomonidan mahsulotni hisobga olishning elektron bazasini yaratish; elektron tijorat faoliyatini qonuniylashtirish va nazorat qilish mexanizmini joriy etish; ko'chmas mulk obektlari va avtotransport vositalari oldi-sotdisi va boshqa yirik miqdordagi bitimlar bo'yicha hisob-kitoblarni bank orqali amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratish; tadbirkorlar faoliyatiga davlat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlar faktlariga qat'iy yo'l qo'ymaslik; davlat organlari ishida shaffoflik va ochiqlikni ta'minlash borasida bajarilishi lozim bo'lgan ishlar mujassamlashgan. Shuningdek, valuta bozorini yanada erkinlashtirish, ya'ni valuta ayirboshlashdagi va sotishdagi asossiz cheklovlarini bartaraf etish, jumladan jismoniy shaxslarga naqd valutani sotish, investitsiya olib kirgan shaxslar uchun valuta repatriatsiyasini to'liq joriy etish va valuta ayirboshlashni qonuniylashtirish kabi choralarini ko'rish nazarda tutilmoqda. Shu bilan birga "Raqamli O'zbekiston- 2030" "yo'l xaritasi" tasdiqlanishi nazarda tutilgan. Unda davlat xizmatlarini ko'rsatish, davlat boshqaruvi, iqtisodiyotning barcha tarmoqlari, xizmat ko'rsatish sohalarida raqamli transformatsiya qilish ko'zda tutiladi. Biznes xarajatlari va ma'muriy yuklamani kamaytirish maqsadida ma'muriy tartib-taomillarni raqamlashtirish, barcha ma'muriy tartib-taomillarni xatlovdan o'tkazib, yagona hujjatda jamlash hamda alohida qabul qilingan reglament va qarorlarni bekor qilish ko'zda tutiladi.

Yashirin iqtisodiyotni bartaraf etish yo'llari:

Bu masalada rivojlangan davlatlarning bosib o'tgan yo'llari chuqur tahlil qilinib, o'zimizga mos bo'lgan yo'nalishlarga tayanib, bosqichma-bosqich amalga oshirish lozim deb o'ylayman. Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda yashirin iqtisodiyotning ulushi va ta'sirini minimal darajada kamaytirishga erishilgan. Bu esa oddiy aholi

turmush darajasi yuqori darajada bo'lishiga zamin yaratgan. Avvalo, yashirin iqtisodiyot bilan shug'ullanadigan tadbirkorlarni asta-sekinlik bilan qonuniy belgilangan tartibda ishlashga o'rgatishimiz lozim bo'ladi.

Tadbirkorlik faoliyati bilan noqonuniy shug'ullangan va o'z daromadlarini yashirgan barcha tadbirkorlik sub'yektlariga amnistiya qo'llash, ya'ni belgilangan amnistiya muddati ichida tadbirkorlar o'z daromadlarini hech qanday to'siqsiz va ortiqcha tekshiruvlarsiz qayd etib, legallashtirishlari hamda faoliyatlarini davom ettirishlari uchun qonuniy choralar ko'rish maqsadga muvofiq. O'zbekistonda valuta qora bozorini yo'q qilish uchun noqonuniy valuta qora bozorlarini qonuniylashtirgan holda belgilangan intervallar doirasida bozor narxlarida savdo qiluvchi valuta ayirboshlash shoxobchalarini tashkil qilish darkor. Naqd xorijiy valutani bemalol rasmiy soliq to'lab faoliyat yuritadigan xususiy shoxobchalarda almashtirish imkonini berish kerak. Shundan so'ng yashirin savdo qilayotgan valuta sotuvchilarni qattiq jazolash lozim. Davlat tomonidan naqd pulsiz savdo qilayotgan tadbirkorlarga imtiyoz preferensiylar berish orqali qo'llab-quvvatlash mamlakatimiz iqtisodiyoti barqarorligini yanadata'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, rivojlangan davlatlarda bugungi kunga kelib naqd pul muomalasi maksimal darajada qisqartirilgan, barcha pul aylanishi bank orqali amalga oshirilishi davlat iqtisodiyotining rivojlanishiga olib kelishi hech kimga sir emas.

Yashirish iqtisodiyotni qisqartirish vaadolatli soliq tizimini yuritishda iqtisodiy tashkilotlarning o'zaro hamkorligisiz ko'zlangan natijaga erishib bo'lmaydi. Shu o'rinda soliq organlarining soliq ob'ektlari va soliq solish bilan bog'liq ob'ektlarni aniqlashda tashkilotlar bilan hamkorligida manfaatlar to'qnashuvi natijasida yuzaga kelgan kamchiliklarni tahlil qilish va undagi aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflar berishdan iborat.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Yashirin_iqtisodiyot
2. [https://fayllar.org/reja-xufyona-iqtisodiyotning-mazmuni-va-vujudga-kelish-sababla-v3.html? saifa=2](https://fayllar.org/reja-xufyona-iqtisodiyotning-mazmuni-va-vujudga-kelish-sababla-v3.html?saifa=2)
3. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/iqtisodiyot/xufyona-iqtisodiyotning-tarkibi-sabablari- va-oqibatlari>
4. <https://kun.uz/uz/news/2019/05/04/deputat-fikri-yashirin-iqtisodiyotning-kelib-chiqish-4. sabablari-jamiyatga-tasiri-va-bartaraf-etish-yollari>
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/tashkilotlarda-manfaatlar-to-qnashuvining-yashirin- iqtisodiyotga-ta-sir>